

“PledgeID”-sonli Garov shartnomasi

Toshkent sh.

“PledgeDate”

“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda “Bank / Garovga oluvchi” deb ataladi) nomidan Ustav asosida faoliyat yurituvchi “DisbursementResponsiblePerson” va,

“FullName” (keyingi o‘rinlarda “Qarz oluvchi / Garovga qo‘yuvchi” deb ataladi) (JSHSHIR: “PersonalNumber”, “IDSeriesAndNumber”, “Address”), ikkinchi tomondan, mazkur Garov shartnomasini (bundan keyingi o‘rinlarda Shartnoma deb yuritiladi) quyidagilar haqida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. “Date” yildagi “LoanID”-sonli Kredit shartnomasiga (keyingi o‘rinlarda “Kredit shartnomasi” deb ataladi) muvofiq Garovga oluvchi “Carbrand”, “CarModel”, “Modification”, “YearofManufacture”, “CarColor”, “VINNumber” avtomobilini (keyingi o‘rinlarda “Avtomobil” deb ataladi) Qarz oluvchiga xarid qilish uchun, sotib olinayotgan Avtomobil garovi evaziga, “TermInMonths” oy muddatga yillik “Interest” foiz stavka bilan “LoanAmount” (“LoanAmountInWords”) miqdorida kredit ajratadi.

1.2. Kredit shartnomasi shartlarini o‘z vaqtida bajarish uchun Garovga qo‘yuvchi ushbu Shartnomaning 1.1-bandiga muvofiq Garovga qo‘yuvchiga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan yoki Qarz oluvchi tomonidan kelajakda Garovga oluvchi taqdim etgan kredit hisobidan unga nisbatan mulk huquqini qo‘lga kiritgan holda sotib olinadigan Avtomobilni (bundan keyin - Garov) Garovga oluvchiga garov ta‘minoti sifatida qo‘ydi.

Garov 1.1-bandda ko‘rsatilgan VIN-raqam asosida Garovga oluvchi tomonidan garovlar reyestrda Garovga qo‘yuvchi texnik pasportni olgunga qadar ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Garovga qo‘yuvchi texnik pasportni olgandan so‘ng, 5 (besh) kun ichida ma‘lumotlarni solishtirish va zarur hollarda reyestr yozuviga o‘zgartirishlar kiritish uchun uni Garovga oluvchiga topshirishi shart.

1.3. Tomonlar Kredit shartnomasini rasmiylashtirgan vaqtda Garov qiymati “PledgeAmount” (“PledgeAmountInWords”) ni tashkil etadi.

1.4. Avtomobil Garov qo‘yuvchining ixtiyorida qoladi.

1.5. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 23, 24-moddalarini ijrosini ta‘minlas maqsadida garov to‘g‘risidagi shartnomani tuzish uchun Garovga qo‘yuvchi turmush o‘rtog‘ining roziligini tegishli tarzda olishni kafolatlaydi.

1.6. Mol-mulk garovi Kredit shartnomasi bo‘yicha Garovga oluvchining talablarini, shu jumladan asosiy qarz, foizlar, majburiyatlarni bajarish muddatini kechiktirish natijasida yetkazilgan zararlarni qoplashni, shuningdek, undiruv xarajatlarini qoplashni ta‘minlaydi.

1.7. Garovga qo‘yuvchi ushbu Shartnoma tuzilgan vaqtda mazkur Garov predmeti hech kimga sotilmaganligi, hadya etilmaganligi, hadya qilishga va‘da berilmaganligi, garovga qo‘yilmaganligi, nizoli emasligi va taqiq (arest) ostida emasligini Garovga oluvchiga ma‘lum qildi hamda Garovga oluvchi esa buni qabul qildi.

2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. Garovga qo‘yuvchi majburiyatlari:

2.1.1. Garov predmetini Garovga oluvchiga tegishli holatda va uchinchi shaxslarning huquqlari ta‘siridan xoli holda topshirish;

2.1.2. Avtotransport vositasi O‘zbekiston Respublikasi IIV YHXBB organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilgan kundan boshlab 5 (besh) kalendar kun ichida avtomobilga egalik huquqini belgilovchi barcha zarur hujjatlar va ma‘lumotlarni taqdim etish;

2.1.3. Garovga oluvchining yozma roziligisiz Garovni tasarruf etmaslik (sotmaslik, hadya etmaslik, ijaraga bermaslik, garovga bermaslik).

2.1.4. Garovning but saqlanishini va uchinchi shaxslarning tajovuzlari yoki da‘volaridan himoya qilinishini ta‘minlash, mol-mulkni soz texnik va sanitariya holatida saqlash, yong‘inga qarshi xavfsizlik hamda undan foydalanish qoidalariga qat‘iy rioya etish. Mol-mulkka shikast yetkazilishiga, uning

xususiyatlari yomonlashishiga yoki qiymati tabiiy eskirish me'yorlaridan ortiq darajada pasayishiga yo'l qo'yilmaydi.

2.1.4.1. Agar Garov yo'qolgan (nobud bo'lgan), zarar ko'rgan yoki uning bozor qiymati ushbu Shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan dastlabki qiymatning 50 foizidan ko'proqqa pasaysa, Garovga qo'yuvchi 10 (o'n) kun ichida garovni tiklash, teng qiymatli ta'minotni taqdim etish yoki Kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatni muddatidan oldin to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi. Garovning bozor qiymati pasayganligi va uning miqdori Tomonlarning kelishuviga binoan jalb etilgan mustaqil baholovchining hisoboti bilan tasdiqlanadi.

2.1.5. Agar Garovga oluvchida Kredit shartnomasini muddatidan oldin bajarishni talab qilish va undiruvni Garovga qaratish huquqi paydo bo'lsa, Garovga oluvchining talablariga javob berish.

2.1.6. Garov ashyosini sug'urtalash (KASKO) majburiydir, Qarz oluvchi Kreditni olish paytida tanishgan va Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan kreditlash shartlarida belgilangan mezonlarga muvofiq keladigan hollar bundan mustasno — Kredit shartnomasining butun amal qilish muddati davomida Garov ashyosining uning to'liq qiymati miqdorida uzluksiz sug'urtalanishini ta'minlash (quvvatlab turish). Sug'urta polisi yangi muddatga uzaytirilgan taqdirda, tasdiqlovchi hujjatlar Garov ushlab turuvchiga oldingi polisning amal qilish muddati tugashidan kamida 5 (besh) kalendar kun oldin taqdim etilishi shart.

2.1.7. Garov egasini Garov narsasining yo'qolishi, shikastlanishi yoki xususiyatlari o'zgarishi (jumladan, uning yaroqsiz holga kelishi) xavfi yuzaga kelganda, shuningdek, uchinchi shaxslarning garovga qo'yilgan mol-mulkka nisbatan har qanday da'volari yoki talablari to'g'risida zudlik bilan xabardor qilish. Tegishli bildirishnomaga ko'rsatilgan holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi kerak..

2.1.8. Garovga oluvchiga Garov predmetining holatini to'sqinliksiz ko'zdan kechirish va tekshirish imkoniyatini taqdim etish.

2.2. Garovga qo'yuvchi huquqlari:

2.2.1. Garovga uning maqsadiga muvofiq egalik qilish va undan foydalanish.

2.2.2. Garov predmetini keyingi garovga qo'yish faqat Garovga oluvchining yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.

2.2.3. Garovga oluvchining roziligi bilan Garovni almashtirish.

2.3. Garovga oluvchi huquqlari:

2.3.1. Hujjatlar bo'yicha tekshirish, shuningdek, tashrif haqida kamida 24 (yigirma to'rt) soat oldin ogohlantirib, Garovning holatini ko'zdan kechirish va shaxsan tekshirish.

2.3.2. Agar Garovga qo'yuvchi Kredit shartnomasi bo'yicha asosiy majburiyatni bajarmasa, undiruvni Garovga qaratish.

2.3.3. Agar Garovga qo'yuvchi ushbu Shartnoma va Kredit shartnomasi shartlarini bajarmasa, Kredit shartnomasini muddatidan oldin bajarishni yoki Garovni topshirishni talab qilish.

2.3.4. Mazkur Shartnoma bo'yicha o'z huquqlarini boshqa shaxsga topshirish.

2.3.5. Garov yo'qolganligi (nobud bo'lganligi) yoki shikastlanganligi uchun sug'urta tovonidan (garov kimning foydasiga sug'urtalanganligidan qat'i nazar) o'z talablarini qoplashga haqli. Olingan sug'urta tovonining summasi Garovga oluvchi tomonidan Kredit shartnomasi bo'yicha Garovga qo'yuvchining qarzdorligini navbatdan tashqari so'ndirishga yo'naltiriladi.

2.3.6. Garovga oluvchining huquqlarini buzuvchi davlat boshqaruvi organlari yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining hujjatlarini haqiqiy emas deb topish yuzasidan sudga da'vo arizasi kiritish hamda tegishli organlardan bunday hujjatlarning chiqarilishi natijasida yetkazilgan zararlarni qoplashni talab qilish.

2.3.7. Agar Garovga qo'yuvchi Garovni sug'urtalash bo'yicha majburiyatlarini buzsa, Garovni o'z hisobidan, biroq Garovga qo'yuvchining manfaatlarini ko'zlab sug'urtalashi va undan sug'urta xarajatlarini undirish.

2.4. Garovga oluvchi majburiyatlari:

2.4.1. Qarz oluvchi tomonidan Kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlar bajarilganda garov reyestriga tegishli o'zgartirishlar kiritish.

3. UNDIRUVGA QARATISH

3.1. Agar Kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan bo'lsa, Garovga oluvchi undiruvni Garovga qaratishga haqli.

3.2. Agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, Garovga oluvchining tanloviga ko'ra undiruv Garovga suddan tashqari yoki sud tartibida qaratilishi mumkin.

3.2.1. Garovga qo'yuvchi undiruvni Garovga suddan tashqari qaratish tartibiga, shu jumladan notariusning ijro yozuvini olishga o'zining so'zsiz roziligini bildiradi.

3.3. Garov predmetiga undiruv sudgacha tartibda qaratilgan taqdirda, Garov saqlovchi Garov predmetini qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday usulda, jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda: ommaviy savdolarida sotish, uchinchi shaxsga to'g'ridan-to'g'ri sotish yoki qonunchilikda yo'l qo'yiladigan boshqa tasarruf etish usullari orqali sotishga haqlidir. Sotishning aniq usulini tanlash Garov saqlovchining ixtiyorida qoladi.

3.4. Undiruvni Garovga qaratishda uning boshlang'ich sotish qiymati Garovga oluvchining tashabbusi bilan jalb etiladigan mustaqil baholovchi tashkilotning hisoboti asosida bozor qiymati bo'yicha belgilanadi. Tomonlardan biri baholash natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda, bunday Tomon O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda baholash to'g'risidagi hisobotni ekspertizadan o'tkazish tashabbusi bilan chiqishga haqli.

3.5. Agar Garovga oluvchining barcha talablarini (shu jumladan asosiy qarzdorlikni, foizlarni, neustoykalarni va Garovni sotish xarajatlarini qoplash uchun xarajatlarni va shu kabilarni) qoplash uchun Garovni sotishdan tushgan summa yetarli bo'lmasa, Garovga oluvchi yetishmayotgan mablag'larni umumiy asoslarda Garovga qo'yuvchining boshqa mol-mulkidan undirib olishga haqli.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Agar Garovga qo'yuvchi tomonidan Garovni garov reyestrda ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur hujjatlar va ma'lumotlar taqdim etilmasa yoki o'z vaqtida taqdim etilmasa, Garovga qo'yuvchi Garovni ro'yxatdan o'tkazishning imkoni yo'qligi yoki kechiktirilishi munosabati bilan Garovga oluvchining barcha zararlari, shu jumladan, Kredit shartnomasi bo'yicha barcha summani muddatidan oldin to'lash oqibatlari uchun javobgar bo'ladi;

4.2. Garovning texnik pasportini taqdim etish muddati kechiktirilgan taqdirda, Garovga qo'yuvchi Kredit shartnomasiga muvofiq javobgar bo'ladi.

4.3. Garov saqlovchi ushbu Shartnomaning 2.3.7-bandiga muvofiq Garov predmetini mustaqil sug'urtalash huquqini amalga oshirgan taqdirda, Garovga qo'yuvchi Garov saqlovchining barcha faktik xarajatlarini (jumladan, sug'urta mukofotlari va ular bilan bog'liq to'lovlarni) to'liq hajmda qoplashi shart. Shu bilan Garovga qo'yuvchi Garov saqlovchiga so'zsiz va chaqirib olinmaydigan rozilik beradi, shuningdek, bunday xarajatlar summasini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasida nazarda tutilgan tartibda Garovga qo'yuvchining Garov saqlovchida va O'zbekiston Respublikasining boshqa har qanday banklarida ochilgan barcha hisobvaraqlaridan, shuningdek, Garovga qo'yuvchining bank kartalaridan (jumladan, ushbu Shartnomaning amal qilish davrida yangidan ochiladigan va chiqariladigan) akseptsiz tartibda hisobdan chiqarishni amalga oshirishni unga topshiradi va vakolat beradi;

4.4. Garovga qo'yuvchi sug'urta qoplamasining yo'qligi oqibatida yuzaga kelgan Garovga oluvchining zararlari, shu jumladan sug'urta hodisasi yuz berganda Garov qiymatining yo'qolishi yoki zarari uchun javobgar bo'ladi;

4.5. Garovga qo'yuvchi tomonidan sug'urta xarajatlari va zararlarni qoplash ushbu Shartnoma bo'yicha Garovga qo'yuvchining boshqa majburiyatlaridan qat'i nazar amalga oshiriladi.

4.6. Ushbu Shartnomaning 2.1.4.1-bandida belgilangan muddatda Garovga qo'yuvchi boshqa teng qiymatli ta'minotni taqdim etmagan taqdirda, Garovga qo'yuvchi Kredit shartnomasi bo'yicha ta'minotning yo'qligi yoki yetarli emasligi tufayli Garovga oluvchining barcha zararlari uchun javobgar bo'ladi.

Agar ko'rsatilgan majburiyatni ijro etish 10 (o'n) kalendar kundan ortiq muddatga kechiktirilgan bo'lsa, Garovga qo'yuvchi ushbu Shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan Garov qiymatidan "PledgePenaltyRate" foizi miqdorida, 11- (o'n birinchi) kundan boshlab amalda ta'minot taqdim etilgan sanagacha bo'lgan har bir kechiktirilgan kun uchun Garovga oluvchiga penya to'laydi.

Garovga oluvchi Garovga qo'yuvchidan Kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni muddatidan oldin bajarishni, shu jumladan qarzdorlikni to'liq hajmda muddatidan oldin to'lashni, shuningdek, hujjatlar bilan tasdiqlangan zararlarni qoplashni talab qilishga haqli.

Penya to'lovi Garovga qo'yuvchini teng qiymatli ta'minotni taqdim etish majburiyatidan ozod etmaydi.

4.7. Agar Garovga qo'yuvchi Shartnomaning 2.1.8-bandiga muvofiq Garov predmetini ko'zdan kechirish va uning holatini nazorat qilish uchun Garovga oluvchining (yoki uning vakolatli vakillarining) unga jismoniy ruxsatini ta'minlash majburiyatini bajarmasa, Garovga qo'yuvchi ushbu Shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan Garov qiymatining "PledgeFixedPenalty" foizi miqdorida bunday buzilishning har bir holati uchun Garovga oluvchiga jarima to'laydi.

Jarima to'lash Garovga qo'yuvchini bunday ruxsat bilan ta'minlash majburiyatidan hamda ko'rsatilgan qoidabuzarlik tufayli Garovga oluvchiga yetkazilgan, hujjatlar bilan tasdiqlangan zararlarni qoplashdan ozod etmaydi.

4.8. Garovga qo'yuvchi ushbu Shartnoma shartlari buzilishi munosabati bilan yuzaga kelgan sud xarajatlarini va Garovga oluvchining hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa xarajatlarini qoplash majburiyatini oladi.

4.9. Garovni (KASKO) sug'urtalash Garovga qo'yuvchi uchun majburiydir, Qarz oluvchi Kreditni olish paytida tanishgan va Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan kreditlash shartlarida belgilangan mezonlarga muvofiq keladigan hollar bundan mustasno. Agar sug'urtalash majburiy bo'lsa, Qarz oluvchi Garov ashyosini sug'urta tashkilotida Bank uchun maqbul bo'lgan shartlarda sug'urtalashni va ushbu Shartnomaning butun amal qilish muddati davomida mazkur sug'urtani ta'minlash majburiyatini oladi. Sug'urta hodisasi yuz berganda Bank naf oluvchi hisoblanadi. Sug'urtalash majburiy xususiyatga ega bo'lganda, Garovga qo'yuvchining ushbu Shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlari va uning javobgarlik choralari (jumladan, 2.1.6, 2.3.7, 4.3, 4.4 va 4.5-bandlar) to'liq hajmda qo'llaniladi. Agar belgilangan kreditlash shartlariga muvofiq Garovni (KASKO) sug'urtalash Garovga qo'yuvchi uchun majburiy bo'lmasa, ko'rsatilgan majburiyatlar va javobgarlik choralari (jumladan, 2.1.6, 2.3.7, 4.3, 4.4 va 4.5-bandlar) qo'llanilmaydi.

5. BOSHQA SHARTLAR

5.1. Ushbu Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar Kredit shartnomasini to'liq bajargunlariga qadar amal qiladi.

5.2. Ushbu Shartnoma shartlarini o'zgartirish, uni uzaytirish yoki kelishilgan holda muddatidan oldin bekor qilish Tomonlarning yozma shaklda rasmiylashtiriladigan kelishuviga ko'ra, shuningdek, TBC UZ ilovasining funksionalida nazarda tutilgan hollarda, Garovga qo'yuvchining roziligi (tegishli bildirishnomani tasdiqlashi) bilan elektron shaklda amalga oshiriladi, undiruvni Garovga qaratish to'g'risida ushbu Shartnoma bandlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

5.3. Ushbu Shartnoma ikki nusxada, Garovga oluvchi va Garovga qo'yuvchi uchun bir nusxadan tuzildi. Shartnomaning barcha nusxalari bir xil yuridik kuchga ega.

5.4. Tomonlar ushbu Shartnomaning barcha shartlari ular tomonidan kelishilganini, tushunarli ekanini va ularning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligini tasdiqlaydi. Garovga qo'yuvchi Shartnomani ixtiyoriy va ongli ravishda tuzayotganini, uning shartlari, jumladan, undiruvni Garovga qaratish va uni sotish tartibi, shuningdek, uni tuzishning huquqiy oqibatlarini bilan tanishganini tasdiqlaydi.

5.5. Garovga qo'yuvchi quyidagilarni tasdiqlaydi va kafolatlaydi:

- Garov unga mulk huquqi asosida tegishli, uchinchi shaxslarning huquqlaridan xoli, garovga qo'yilmagan, sotilmagan, hadya sifatida va'da qilinmagan, xatlanmagan, taqiqlanmagan yoki boshqa cheklolarga tortilmagan;

- Garovga oid Bankka taqdim etilgan/etiladigan barcha hujjatlar va ma'lumotlar taqdim etilgan sanada haqiqiy va ishonchli hisoblanadi/bo'ladi;

• Garovga qo'yuvchi to'liq huquq va muomala layoqatiga ega hamda ushbu Shartnomani tuzish va unda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish huquqiga ega.

5.6. Ushbu orqali Garovga qo'yuvchi Garovga oluvchiga quyidagi harakatlarni amalga oshirishga so'zsiz huquq va rozilik beradi:

5.6.1. Garov ta'minotini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan qoidalar va nizomlarga muvofiq ro'yxatdan o'tkazish, hisobga olish va nazorat qilish maqsadida ushbu Shartnomada taqdim etilgan, shuningdek, Bankning ma'lumotlar bazasida va/yoki Kredit byurosi hamda Garov reyestri (keyingi o'rinlarda — Reyestrlar) ma'lumotlar bazalarida saqlanadigan Garovga qo'yuvchining ma'lumotlariga ishlov berish. Garovga qo'yuvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan huquqlardan xabardor, unga ko'ra, ma'lumotlarga ishlov beruvchi subyekt Garovga qo'yuvchining so'roviga binoan, agar ma'lumotlar to'liq bo'lmasa, noaniq, eskirgan yoki noqonuniy olingan va ularga noqonuniy ishlov berilgan bo'lsa, ularni tuzatishi, yangilashi, to'ldirishi, bloklashi, o'chirishi yoki yo'q qilishi shart. Ushbu rozilik garov bilan ta'minlangan Kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilgunga va Garov Reyestrdan chiqarilgunga qadar amal qiladi.

5.7. Garovning holati va qiymatini monitoring qilish maqsadida erkin/ochiq foydalanishdagi Garovga oid har qanday ma'lumotlardan, shuningdek, davlat organlaridan (jumladan, O'zbekiston Respublikasi IIV YHXBB), baholovchi va sug'urta tashkilotlaridan olingan ma'lumotlardan, basharti ushbu ma'lumotlarni olish va ulardan foydalanish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid kelmasa, foydalanish.

5.8. Garovga qo'yuvchi bilan Garovga va ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga oid masalalar, jumladan, Garovni ko'zdan kechirish zarurati, sug'urta polisini uzaytirish, Garovning bozor qiymati pasayishi, garov ta'minotiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa holatlar yuzasidan Garovga oluvchiga ma'lum bo'lgan Garovga qo'yuvchining manzillari (rekvizitlari) bo'yicha telefon qo'ng'iroqlari (ovozni yozib olish huquqi bilan), ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar, xatlar, elektron va SMS-xabarlar vositasida, shuningdek muzokaralar (uchrashuvlar) o'tkazish yo'li bilan muloqot qilish.

5.9. Elektron/raqamli shaklda, shu jumladan masofaviy aloqa kanallari vositasida rasmiylashtirilgan hujjatlar va tasdiqnomalar Garovga qo'yuvchi tomonidan shaxsan imzolangan qog'oz shaklidagi hujjatlar bilan bir xil yuridik kuchga ega.

5.10. Agar ushbu Shartnomaning bir yoki bir nechta qoidalari (shartlari) qonun yoki sud qaroriga ko'ra haqiqiy emas deb topilsa, bu Shartnomaning boshqa qoidalari (shartlari) amal qilishini bekor qilish uchun asos bo'lmaydi. Garov shartnomasining ayrim qoidalari haqiqiy emasligi Kredit shartnomasi bo'yicha asosiy majburiyatning haqiqiy emasligiga olib kelmaydi.

5.11. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan Garovga oluvchi va Garovga qo'yuvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

5.12. Barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa quyidagicha ko'rib chiqiladi:

- javobgar ro'yxatga olingan hudud bo'yicha sud tartibida
- Garovga oluvchi ro'yxatdan o'tgan hudud bo'yicha sud tartibida;
- Shuningdek, Garovga oluvchi o'z xohishiga ko'ra fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudiga, fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudiga, fuqarolik ishlari bo'yicha Uchtepa tumanlararo sudiga, fuqarolik ishlari bo'yicha Shayxontohur tumanlararo sudiga, fuqarolik ishlari bo'yicha Yakkasaroy tumanlararo sudiga murojaat qilish huquqiga ega;
- yoki qonunchilikda belgilangan tartibda notarial ijro yozuvini olish yo'li bilan. Qarzdorlik notarial ijro yozuvini olish yo'li bilan undirilganda, Garovga qo'yuvchi notarial ijro yozuvining haqiqiyligini so'zsiz tartibda tan oladi.

AVTOMOBIL QIYMATINI KELISHISH TO'G'RIDAGI DALOLATNOMA

Toshkent sh.

“Date”

Biz, quyida imzo qo'yuvchilar:

Bank: “TBC Bank” ATB nomidan Ustav asosida faoliyat yurituvchi “DisbursementResponsiblePerson” (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb ataladi) va

“FullName”, (keyingi o‘rinlarda “Qarz oluvchi / Garovga qo'yuvchi” deb ataladi) (JSHSHIR: “PersonalNumber”, “IDSeriesAndNumber”, “Address”), ikkinchi tomondan,

quyidagilar to'g'risida ushbu dalolatnomani tuzdilar:

Dalolatnoma predmeti: “LoanDate” yildagi “LoanID”-sonli Shartnoma bo'yicha kredit predmeti hisoblangan va ushbu Shartnoma doirasida garovga qo'yiladigan avtomobil qiymatini kelishish.

Tomonlar avtomobilning “PledgeAmount” (“PledgeAmountInWords”) miqdoridagi qiymatini kelishib oldilar va ushbu qiymat garov qiymati sifatida qabul qilindi.

Garov predmeti / xarid to'g'risida ma'lumot:

- Avtomobil rusumi: “Carbrand”
- Model: “CarModel” “Modification” “CarColor”
- Ishlab chiqarilgan yili: “YearofManufacture”
- VIN/identifikatsiya raqami: “VINNumber”

Qiymatini tasdiqlovchi hujjatlar:

- Avtomobil oldi-sotdi shartnomasi.

Tomonlar quyidagilarni tasdiqlaydi:

- Kelishilgan qiymat mazkur dalolatnoma imzolangan vaqtda haqiqiy hisoblanadi.
- Avtomobilning qiymati garovni rasmiylashtirishda va Qarz oluvchiga kredit berishda Bank tomonidan inobatga olinadi.
- Tomonlar avtomobil qiymatidagi har qanday o'zgarishni yozma ravishda alohida dalolatnoma bilan kelishilishi kerak.